



**UDK:116-047.26:821.111(73) Э.По.06**

**EDGAR ALLAN PO DETEKTIV-SARGUZASHT  
HIKOYALARIDAGI TALQINI**

**Xalimov Saloxiddin Samiyevich**

*Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

halimovsalohiddin37@gmail.com

*tel:996230551*

**Annotatsiya:** Edgar Allan Po Yevropa adabiyotida sarguzasht janrining asoschisi sifatida alohida o‘ringan ega. Mazkur maqolada E.Po ijodidagi “Morg ko ‘chasidagi qotillik”, “Vabo qiroli”, “Qizil ajal niqobi” kabi hikoyalaridagi majoziy-ramziy, sarguzasht, xayoliy-fantaziya, mistika, ilohiy tasavvur, izquvarlik singari xususiyatlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** dedektiv, sarguzasht, sarguzashtlilik, psixologik- dedektivizm, mistika, majoziy hikoya.

**Annotation:** Edgar Allan Poe has a special place in European literature as the founder of the adventure genre. This article analyzes the metaphorical-symbolic, adventure, imaginary-fantasy, mysticism, divine imagination, curiosity features in E. Poe's stories such as "Murder on Morgue Street", "The Plague King", "The Mask of the Red Death".

**Key words:** detective, adventure, adventurousness, psychological detectiveism, mysticism, figurative story.

**Аннотация:** Эдгар Аллан По занимает особое место в европейской литературе как основоположник приключенческого жанра. В статье анализируются метафорически-символические, приключенческие,



воображающие-фантастические, мистицизм, божественное воображение, любопытство в таких рассказах Э. По, как "Убийство на улице Морга", "Чумной король", "Маска Красной смерти".

**Ключевые слова:** детектив, приключение, авантюризм, психологический детективизм, мистика, образный рассказ.

Adabiyot olamida “dedektiv asar” “sarguzasht asar”, “sarguzasht-dedektiv asar”, “sarguzashtlilik”, “dedektivizm”, “psixologik dedektivizm” kabi istilohlar ishlataladi. Asli sarguzasht asarlar keng tushuncha bo‘lib, sarguzashtlik poetikasi qadim faolklor namunalari bag‘rida paydo bo‘lgan va rivojlangan. “Iliada” va “Odisseya” kabi ilk eposlar sarguzashtlilikning mukammal namunasi. “Go‘ro‘g‘li”, “Alpomish”, “Manas”, “Shaxriyor”, “Igor jangnomasi”, “Kalevaga” kabi xalq dostonlari poetikasi bevosita afsonaviy qahramonlarning uzoq yillar davomida boshdan kechirgan sarguzasht voqealari bilan bog‘liq. AQSh va Yevropa adabiyotida sarguzasht janrining asoschisi sifatida Edgar Allan Po ijodini bilihadi. Ammo bu o‘rinda Jonatan Swiftning “Gulliverning sayohatlari”, Daniyel Defoning “Robinzon Kruzo”, Jorj Fenimor Kuperning va Volter Skotning tarixiy-sarguzasht xarakterdagi romanlari ham shaklan va mohiyatan sarguzasht asarlar namunalari ekanligini eslash kerak. Sarguzashtlilikning izquvarlik bilan bog‘liq syujetlardan tarkib topgan dedektivizm shakli ham mavjudki, odatda sarguzasht va dedektivizm xarakteridagi asarlarni birga, bir butunlikda tasavvur qilib, yaxlit holda talqin qiladilar. Shu bilan birga, dedektiv ruhdagi asarlarning ko‘pincha turli jinoyatlarni, qotilliklarni ochish harakatlari bilan bog‘liq izquvarlik hodisalaridan iborat bo‘lishi ham e’tibor markazida turadi.

Edgar Allan Po asarlarida xayoliy-fantaziya, mistika, ilohiy tasavvur, sarguzashtlilik, izquvarlik singari adabiy unsurlar bir butunlikda qo‘silib-uyg‘unlashib ketganligi bilan e’tiborni tortadi. Binobarin, “Edgar Po ijod olamida



umumiyo‘riqda fantastika va faktografika uslublari yaxlit tarzda o‘zaro uyg‘unlashib ketgan holda namoyon bo‘ladi.”

Adabiyotshunos olim va tarjimon Mahkam Mahmudovning ta’kidlashicha, “Hozirgi zamon modernistlari, dedektiv adabiyot ustalari ham Edgar Poni o‘zlarining ustozи deb hisoblashadi”.

Ma’lumki, ijodiy metod, adabiy uslub, hatto, tur va janrlarga bo‘linish ham umuman nisbiy hodisa hisoblanadi. Shu ma’noda Edgar Allan Po asarlarida metod, uslub, g‘oya, real va noreal hayot talqinlari, xayoliy va hayotiy voqelik muvozanati majoz va fantastika o‘zaro sinkretik tarzda, bir butunlikda e’tiborni tortadi.

Edgar Poning o‘zbek tilida nashr etilgan birinchi asari – “Tilla qo‘ng‘iz” hikoyasining tarjimoni Mirziyod Mirzoidovning ta’kidlashicha, “Edgar Allan Po sarguzasht novellalar ustasi, dedektiv hikoya va ilmiy-fantastika janrining asoschisidir. Bu janrda u “Morg ko‘chasidagi qotillik”, “Mari Rojening siri”, “O‘g‘irlangan xat”, “Sira ko‘rilmagan aerostat” va boshqa asarlar yaratdi. Yozuvchi o‘z asarlarida kapitalistik dunyoning butun chirkin tomonlarini, dollar hukmronligini keskin fosh qiladi, inson aql-zakovatining tantanasini ulug‘laydi. Edgar Poning novellalari mantiqan ravon, jozibador, tili siqiq va shiralidir”.

Adabiyotshunoslarning, jumladan, mashhur adib X.L.Borzesning fikri va tasnifiga ko‘ra, E.A.Poning beshta sarguzasht hikoyasi bor: bular – “Morg ko‘chasidagi qotillik”, “Tilla qo‘ng‘iz”, “Mari Roje siri”, “O‘g‘irlangan maktub”, “Qizil ajal niqobi”. Albatta, bu ro‘yxat nisbiy bo‘lib, E.Po merosidan o‘rin olgan yetmish hikoya va novella tarkibidagi askariyatida sarguzasht va dedektiv xarakterdagi namunalar ancha bor. Bu o‘rinda Borxesning A.Po hikoyalariada aqliy pafosning, ya’ni, intellektuallik fazilatining, adabiyotshunos M.Ibrohimovaning esa tafakkur kengligining namoyon bo‘lishi haqidagi kuzatishlari yuqorida qayd qilingan hikoyalarga hikoyaga xos ekanligini hisobga olish lozim. Qolaversa, E.Poning barcha



asarlarida ham inson aql va tafakkurining quadrati, hayot sirini faqat shu fazilatlar orqaligina ilg‘ab olish kabi g‘oyaviy-falsafiy pafos yetakchilik qiladi.

Adibning “Vabo qiroli” asari “majoziy hikoya” janrida yaratilgan. Hikoyani Rustam Jabborov ruschadan tarjima qilgan. Asar markazida savdo kemasining ikki matrosi obrazi turadi. Zerikkan, zoriqqan matroslar qovoqxonalarda tentirab yurishadi. Cho‘ntaklarida puli yo‘qligidan quvg‘indi bo‘lib kun ko‘rishadi.“Daroz va uning oshnasi Xyu Qatron (uni shunday chaqirishardi) xonaning o‘rtasidagi stolga tirsaklarini tiragancha, valaqlab o‘tirishardi. Ingliz pivosining pulini berishmagani uchun ularning po‘stagini qoqib, tashqariga haydab yuborishgach, ikkovi ham shumshayib, kurtkalarining tugmasini qadagancha, ko‘chada yo‘rg‘alab keta boshlashdi. Xyu Qatron eshik deb o‘ylab, ikki marta kaminga kallasini suqib olganini hisoblamaganda, ular qovoqxonadan eson-omon chiqib olishdi”.

Yupun va pulsiz matroslar Angliya burjuaziyasining notenglik va erksizlik muhitining timsollari sanaladi. Yupunlik, pulsizlik, bir bokal pivo pulini topolmaydigan asli mehnatkash matroslar yurtda hukmon noinsoniy siyosat qurbanlarining majoziy obrazlaridir. Ustiga-ustak mamlakatda og‘ir vabo dahshati kezib yuribdi. “Bu paytlarda butun Angliyada, xususan, uning poytaxtida dahshatli bir sarosima kezib yurardi. Hammaning og‘zida bitta vahimali so‘z: “Vabo!”

London tamomila huvillab qolgan, qorong‘i, tor, iflos ko‘chalar va Temza yaqinidagi tor ko‘chalarda Qo‘rquv, Dahshat va Bi’atlar erkin sayr eta olardi. Qirolning farmoniga asosan, bu hududlarda kirish ta’qiqlangan, o‘lim jazosidan qo‘rqan odamlar bu yerdagи kimsasizlikni buzishga jur’at etisholmasdi.”

Mamlakatdagi dahshatli sarosima ruhi, qo‘rquv, bid’at, zulmat, xastalik, o‘lim vahmasi ham og‘ir va xavfli vabo epidmiyasi bilan bog‘liq bo‘lgani holda, aslida esa, davlatdagi mudhish siyosat mazmunini bildiradi. Matroslar ta’qiqlangan muhitga kirib qolib, baribir biron ilinj umidida tentirab yo‘lda davom etishadi. Daf’atan ular baland



va ichkaridan yoqimsiz shovqinlar, mash'um qichqiriqlar eshitiladigan binoga duch kelishadi. Bu binoda ular tobutsozning do'koniga kirib qolishadi. Xonadagi bahaybat kimsa o'zini "Vabo qiroli" deb ataydi. Qo'lida odamning boldir suyagini ushlab o'tirar, ba'zi-ba'zida uni stolga qarsillatib urgancha, davradagilardan qo'shiq aytishini talab qildi. Uning zavjasи qirolicha Vabo xonim deb atalar ekan. Qirol Vabo birinchi matroslarga stol tevaragidagi isqirt va mayxo'r kishilarni tanishtiradi: Vabo-Jarohat... Bu kimsalarning har biri oddiy xalq boshiga yog'ilgan balo-qazo, ochlik, zulm timsollari sanaladi. Har qaysisi xalq boshiga balo-ofatlarni yog'diruvchi yovuzlik timsollarining asl qora maqsadlarini Vabo Qirol shunday izohlaydi: "–Bu yerda jamlanishimizdan asosiy maqsad esa poytaxtimizdagi sharob va pivolarning ta'mi, lazzatini chuqur o'rganish va baholashdan iborat. Biz bu amallarni barchamizning pushti panohimiz – Ajal hazratlarining roziligi uchun qilmoqdamiz.

- Mabodo, pushti panohingiz Dengiz alvastisi emasmi? – qichqirdi Xyu Qatron ikki bosh chanog'ini sharobga to'lg'azib. – O'zim va yonimdagи manavi xonim uchun olaman". Orada paydo bo'lgan janjal va ur-yiqit jarayonida deyarli barcha idishlar sinadi, sharoblar to'kilib-sochilib ketadi. Tobutlar ham ag'dar-to'ntarda er bilan bitta bo'ladi. Matroslar har biri xonimlarni qo'ltiqlab o'zlarining "Ochiq qalb" deb atalgan kemalari tomon ravona bo'ladilar.

Edgar Po bu sirli-g'aroyiblik poetikasi bilan izohlanadigan murakkab syujetli, mistik ruhga burkangan isqirt sharobxo'r kimsalarning xalq boshiga chiqib olib umrguzaronlik qiladigan tekinxo'rliklarini kuchli, majoziy uslub yordamida fosh qilgan. Tobut majozi jahon adabiyotida, zulm, zo'ravonlik, yemirish, talash, o'lat vositasi sifatida ko'plab ishlatilgan obraz sanaladi.

Adabiyotshunos Diana Kozlovaning yozishicha, Edgar Poning xayoloti, tushkun, yetar-yetishmovchilik ichra o'tgan murakkab umr yo'llarida ichkilikka berilish, mast-alast yurish holatlari badiiy asarlari tarkibida ham beixtiyor aks etgan; ayniqsa,



alkogolizm balosi va u keltirgan noxushliklar badiiy timsollari talqinida o‘z aksini topgan va bunday tushkun kayfiyatga obrazlar adibga o‘z davri illatlarini, xalqning og‘ir va ayanchli ahvolini ko‘rsatish imkonini bergen.

“Vabo qiroli” hikoyasidagi ikki matros ham shaharning ufunat anqib turgan, alg‘ov-dalg‘ov muhiti ichra yurishini eslaymiz: “Agar rostdan ham ular hushyor bo‘lishganida, bu mudhish ko‘chalarga oyoq ham bosishmasdi. Havo nam va sovuq edi. Ko‘prik ustida turli xil toshlar tartibsiz sochilib yotardi. Ko‘chalar vayrona uylarning qoldiqlariga to‘la edi. Yo‘l-yo‘lakay allaqanday badbo‘y hidlar dimoqni yorgudek bo‘lar, kimsasiz uylarning ochiq derazalaridan o‘ljasiga qo‘l cho‘zgan ajal changaliga tushgan tungi talonchilarning chiriyotgan murdasini ko‘rish mumkin edi”. Mazkur asar chuqur psixologik yukni o‘zida jamlaganligi bilan ajralib turadi, qochishga joy topolmagan, ilojsiz har qanday inson o‘sha ko‘ngilsizliklar keltiruvchi asosga ro‘baro‘ kelsagina najot topadi, ikkilanishlar barham topadi.

**Vabo** – E.Po talqinida majozan yurtning, burjuaziyaning zulmkor, odamkush siyosatining in’ikosi. Pahlavon matroslarning tobutlarga joylashib olib, xalqining boyligi hisobidan kecha-kunduzi bilan maishatga berilgan, xalqni vabodan qutqarishni xayoliga keltirmaydigan Vabo-Qirollarni yanchib tashlab, ular davrasidagi yoqimli xonimlarni o‘zları bilan dengizga, kemalari, yoqimli sof muhit sari olib ketishlari – zulm hukmron siyosatga isyon va jazo hisoblanadi.

Edgar Poning “Qizil ajal niqobi” nomli hikoyasi sarguzasht-dedektiv, majoziy, sirli-g‘aroyib uslublar uyg‘unligidan tarkib topgan asarlaridan biri. “Qizil ajal ancha uzoq muddat mamlakatni huvillatib kelayotir edi. Hali biror epidemiya bu qadar katta talafotlarga sabab bo‘lmagandi. Qon uning tamg‘asi, to‘q qizil qon dog‘i esa uning muhriga aylangandi. Kutilmagan bosh aylanishi, azobli bezgak talvasasidan so‘ng bemor qon qusa boshlar, keyin esa, ajal o‘z nashtarini sanchardi. Marhumning tanasida, ko‘pincha yuzida to‘q qizil qon dog‘lari muhrlanib qolar, uning yaqinlaridan hech kim



ajalga yem bo‘lgan qurbonga yordam berolmasdi. Kasallikning ilk belgilaridan, to ajal hukmiga qadar nari borsa yarim soat vaqtini egallardi.”

**Qizil ajal** – majozan yovuzlik, ulkan jinoyatchi maqomidagi maxluq timsoli. Qizil ajal mamlakat ahlini yemirib, o‘ldirib kelayotganligini ko‘rib o‘zini, onasini, saroy ahlini qutqarish uchun shahzoda Prospero xilvat butxonalardan biriga chekinadi. U butxonani o‘ta himoyalangan binosida kecha-kunduz maishatga beriladi. Uning xavfsizligi, hayoti ishonilgan xalq bilan zarracha aloqasi va g‘ami yo‘q. Qizil ajal esa mamlakat ahlini bir boshdan yamlab kelmoqda edi. Butxonada esa katta ziyoftlar, bal-maskaradlar, o‘yin-kulgilar avjida bo‘lib, xalq dardi, uning himoyasi bilan hech kimning ishi yo‘q edi. Kunlardan bir kun qizil ajal sharpadek bo‘lib bu maishatchilar maskaniga ham qadam qo‘yadi.

“Kutilmagan mehmon baland bo‘yli, keng yelkali, boshdan-oyoq matoga burkangan edi. Uning yuzini berkitib turgan niqob esa, o‘likning qiyofasini eslatardi. Bu noma’lum “hazilkash “o‘zini aynan Qizil ajal ko‘rinishida his etishlarini istagandi. Uning oq libosida qon izlari yaqqol ko‘rinar, yuzida esa to‘q qizil qon dog‘i aks etardi.”

**Qizil ajal niqobli** noma’lum kimsa mahvkor siyosat, zulmlar yurt timsoli. E.Po mutafakkirlik bilan hali yaxshiligi va adolatidan darak yo‘q davlat tuzumining yemirishdan, xalqqa zulm-zo‘ravonlik qilishdan to‘xtamasligini majoziy-poetik shaklda uqtirmoqchi bo‘lgan. Oq libosdagi qon izlari – bu mustabid va yovuz siyosat ramzi.

“Birdaniga niqob o‘girilib, unga tikilib qaradi. Prospero baland ovozda qichqirib yubordi, xanjar yarqirab qo‘lidan tushdi va shu zumda qora rangli motam gilamga shahzodaning o‘lik jasadi ag‘anadi. Barcha ziyoft qatnashchilari qora hujraga yopirildi. Keyin kutilmagan jur’at bilan yog‘och soat panasida qotib turgan o‘sha g‘alati sharpaga tashlanishdi. Eng g‘aroyibi hammani dahshatga solgan oppoq kafannusxa kiyim va qo‘rinchli niqob ortida hech narsa yo‘qligi edi.



Hikoya voqeligining tadrijida ma'lum bo'ladiki, bu g'aroyib sharpa Qizil ajalning o'zi ekaniga hech kimda shubha qolmaydi. Shu tobda bu yerdagi kimsalarning bari dahshatli qon dog'lariga belangancha jon taslim eta boshlaydilar. Shundan so'ng yog'och soat chiqillashdan to'xtaydi, mash'allardagi otash bir-ketin so'nadi va butun qasr Zulmat, Halokat va Qizil ajal hukmronligi ostiga o'tadi. Bu zulmkor, zo'ravon qora kuchlarning, burjuaziya korchalonlarining oqibat o'lim va sharmandalik ekanligining majoziy talqini X.L.Borxesning qayd qilishicha, "Biz sarguzasht janri adabiyotlarini o'qiyotganimizda o'zimiz – Edgar Allan Poning ijodiyotimiz Poning hikoyalarini birinchi bo'lib o'qiganlar adibdan hayratga tushganlar va unga maftun bo'lganlar".

Adabiyotshunoslarning fikricha, "Morg ko'chasidagi qotillik" – E.Poning birinchi sof dedektiv hikoyasi. Hikoya voqealari Fransiyada, Parij shahrida bo'lib o'tgan. Hikoyachining (balki, Edgar Poning o'zi) aytishicha, u Parijda S.Opyust Dyupen degan bir kishi bilan tanishgan. Dyupen boy oila zuryodi bo'lib, barcha narsasidan judo bo'lib, qashshoq holga kelib qolgan. U kecha-kunduzi bilan kitoblar mutolaasiga berilgan. Vaqt-soati etib, azobli harakatlar bilan izquvarlik kasbini egallaydi.

Mazkur hikoyada ikki ayolning o'ldirilganligi va qotil-jinoyatchini topish harakatlari aks etadi. Bu ayollar – Morg ko'chasining beshinchi qavatida yashaydigan L.Espane xonim va uning turmushga chiqmagan qizi Kamilla edi. Bir kuni shu xonadan chiqayotgan dahshatli qichqiriq ovozlari aholining diqqatini tortib, u yerga yugurib chiqishga undaydi. Eshiklarni ochib bo'lmay, ularni lom bilan buzib ochishga to'g'ri keladi. Pol yuzida barcha narsa sochilib yotardi. Qirq ming frank pul to'zib yotar, boyliklarga qo'l tegilmagan edi. Bunday qotillik o'ta sirli va g'aroyib edi.

"L.Espane xonimdan biron-bir iz qolmagan edi! Kimningdir kamindagi kul uyumiga ko'zi tushdi, mo'rini tekshira boshladi. Vo ajab! Qizning tanasini sochidan



tortib chiqarishdi, sho‘rlikni bo‘lsa oyog‘ini osmonga qilib, tor mo‘rining ich-ichiga tiqib tashlashibdi. Murda hali issiq edi.”

Tekshirish davomida shu narsa aniq bo‘ladiki, murda terisining ko‘p joylari shilinib tushgan, aftidan, bu murda tanasini sudrab mo‘riga tiqishayotganida ishlatilgan kuchning natijasi bo‘lsa kerak. Yuzlari tirnalib ketgan, bo‘ynida tirnoq izlari qolgan, bamisolli uni bo‘g‘ishgan kabi bo‘ynining momatalog‘i chiqib ketgan edi.

Ko‘rinishidan yosh qizni qanchalik qiynab o‘ldirilganligi ma’lum. Onasining murdasi yo‘qligi esa yanada jumboqligi asar magik xususiyatini qiziqlarliligini oshirgan. Nihoyat, ayol murdasi pastki qavatdan topiladi.

“Uyning astar-paxtasini chiqarib, hamma yerini tekshirib chiqib, biron-bir yangilik topilsholmagach, pastga, baquvvat eshik tomonga qarab otilishdi. U yerda o‘lib yotgan kampirni ko‘rishdi. Uning boshini ustara bilan shunday kesishgan ediki, murdani ko‘tarishmoqchi bo‘lishganida boshi uzilib tushdi. Murdaning yuz-ko‘zi tanib bo‘lmas darajada tilib tashlangan, ayniqsa, tanasini tanib bo‘lmasdi, unda insonga xos narsaning o‘zi qolmagan edi.”

Quloq eshitmagan bu mudhish jinoyat mana shunday dahshatli ko‘rinishga ega bo‘lib, hozircha bu yerda qanday voqeа sodir bo‘lgani ochilishi qiyin bo‘lgan sir edi.

Mashhur izquvar Dyupenning uzoq va mashaqqatli izlanishlari natijasida ham qotil topilmaydi. Uy eshigi qulf, derazalar mahkam, ammo qotildan darak yo‘q. Axiri, bu “qotil” yirik orangutan maymuni ekanligi ayon bo‘ladi. Bu bir dengizchi tanishlarining Indoneziya arxipelagidan tutib olgan maymuni edi. Maymun yakkalikda, uyda yashirin saqlangan, zerikkan va qo‘shti uyga kirib, shu qotilliklarni sodir etgan edi.

Magik (mo‘jizaviy) realizm uslubida yaratilgan asarlar va ularda kutilmagan voqeliklar, g‘aroyib obrazlar bilan bog‘liq namunalari jahon adabiyotining yorqin



asarlaridan sanaladi. Xalq eposlari, rivoyatlari, ertaklaridagi sirli voqeliklar, g‘aroyib obrazlarga xos belgilar Edgar Po asarlarida ham ko‘zga tashladi. E.Po bunday kutilmagan dahshatli voqealar asnosida davrning muhim ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini, ma’naviy masalalarini olg‘a surgan.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Зарубежная литература XIX век. Романтизм. Хрестоматия. Под редакцией Я.Н.Засурского. Москва, «Просвещени», 1976, стр.417.
2. “Шарқ юлдузи” журнали, 1986 йил, 8-сон, 114-бет.
3. По Э. Тилла қўнғиз. Ҳикоя. Ўзадабийнашр, Т.: 1962, 48-бет.
4. Борхес Х.Л. Саргузашт жанр. По Э.А. Буюк Темур. Т.: Янги аср авлоди, 2016, 286-бет.
5. Иброҳимова М. Қолипга сифмаган умр. Эдгар Аллан По ҳаёти ва ижоди ҳақида. “Аъло кайфият” журнали, 2012 йил, 9-сон, 32-бет.
6. По Э.А. Вабо қироли. Мажозий ҳикоя. По Э.А. Буюк Темур. Т., Янги аср авлоди, 2016, 213-бет.
7. По Э.А. Вабо қироли. Мажозий ҳикоя. По Э.А. Буюк Темур. Т., Янги аср авлоди, 2016. 214-бет.
8. По Э.А. Буюк Темур, 315-бет.
9. По Э.А. Қизил ажал ниқоби. Ҳикоя. По Э.А. Буюк Темур. Т.: Янги аср авлоди, 2016, 206-бет.
10. Қизил ажал ниқоби. Ҳикоя. По Э.А. Буюк Темур. Т.: Янги аср авлоди, 2016, 207-бет.
11. Борхес Х.Л. Саргузашт жанр. По Э.А. Буюк Темур. Т.: Янги аср авлоди, 2016, 276-бет
12. Қизил ажал ниқоби. Ҳикоя. По Э.А. Буюк Темур. Т.: Янги аср авлоди, 2016, 91-бет.